O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGIZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“RAQAMLI IQTISODIYOT” KAFEDRASI

«O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI»

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

MATERIALLARI TO’PLAMI

(I-QISM)

(2024 YIL 25-NOYABR)

SAMARQAND – 2024

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGIZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“RAQAMLI IQTISODIYOT” KAFEDRASI

«O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI»

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

MATERIALLARI TO‘PLAMI

(I-QISM)

(2024 yil 25-noyabr)

SAMARQAND – 2024

UO'K: 330.35(575.1)
O‘ 17
KBK: 65.9(O‘zb)

O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish masalalari. / Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. 2024 yil 25-noyabr kuni. Samarqand, SamISI, 2024. – 262 bet.

Nashr uchun mas'ullar:
Q.J.Mirzayev – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
D.X.Aslanova- iqtisodiyot fanlari falsafa doktori, professor.
E.Shavqiyev – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor.
S.A.Isxakova – iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.
G'.S.Mustafoyev – iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.
S.B.Boboqulov – iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.
Sh.I.Artikova – iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent v/b

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi: Sh.I.Artikova – iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent v/b.
Sahifalovchi: F.F.Ulugmurodov

An'anaviy xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallarida raqamli iqtisodiyotning iqtisodiy sohalarda barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlashning ilmiy-nazariy va metodologik yondashuvlari, aholi bandligi, farovonligi, yashash sifati va darajasini yuksaltirishdagi rolini oshirish masalalari, xizmat industriyasi bilan integratsiyalashuv jarayonlaridagi tendentsiyalari va istiqbolli yo'nalishlari, sohani rivojlantirish muammo va yechimlari, boshqaruv usullari va ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishda raqamli iqtisodiyotni takomillashtirish yo'llari, raqamli iqtisodiyot bilan bog'liq soha samaradorligini bank – moliyaviy tizimi orqali oshirish mexanizmlari, korxonalarda buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil, audit va statistik hisob usullarini takomillashtirishning innovatsion yondashuvlari, servis tizimi xizmatlarining sifati va samaradorligini oshirish yo'llari, sohani shakllantirishda raqamlashtirish muammolari va ularning yechimlariga qaratilgan ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarga boy maqola va tezislar o'rin olgan.

В материалах традиционно международной научно-практической конференции вошли статьи и тезисы, богатые научно-теоретическими и практическими рекомендациями, направленными на научно-теоретические и методологические подходы к обеспечению устойчивых темпов роста цифровой экономики в экономических сферах, вопросы повышения роли цифровой экономики в обеспечении занятости, благосостояния,

повышения качества и уровня жизни населения, тенденции и перспективные направления в процессах интеграции с индустрией услуг, проблемы и решения отраслевых задач, методы управления и перспективы развития цифровой экономики в социально-экономическом развитии. улучшение пути, механизмы повышения эффективности сферы, связанной с цифровой экономикой через банковско – финансовую систему, инновационные подходы к совершенствованию методов бухгалтерского учета, экономического анализа, аудита и статистического учета на предприятиях, пути повышения качества и эффективности услуг сервисной системы, проблемы цифровизации в становлении промышленности и пути их решения.

The materials of the the traditionally international scientific and practical conference included articles and abstracts rich in scientific, theoretical and practical recommendations aimed at scientific, theoretical and methodological approaches to ensuring sustainable growth rates of the digital economy in economic spheres, issues of increasing the role of the digital economy in ensuring employment, welfare, improving the quality and standard of living of the population, trends and promising areas in the processes of integration with the service industry, problems and solutions to industry problems, management methods and prospects for the development of the digital economy in socio-economic development. improvement of the path, mechanisms for increasing the efficiency of the sphere related to the digital economy through the banking and financial system, innovative approaches to improving accounting methods, economic analysis, audit and statistical accounting at enterprises, ways to improve the quality and efficiency of services of the service system, problems of digitalization in the formation of industry and ways to solve them.

Maqolalar mualliflar tahririda bosilmoqda. Ularda keltirilgan raqamlar, faktlar, xulosa va tavsiyalarga mualliflar ma’suldir. Ularning ayrim fikrlari tashkiliy guruh qarashlariga to’g’ri kelmasligi mumkin.

ISBN: 978-9910-720-95-6

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2024

инфратузилма ривожланганлик даражаси орасидаги фарқни камайтириш ҳудудий тадбиркорлик соҳасини янада ривожлантиришга асос бўлади.

иккинчидан: кўрсатилган хизматлар билан ЯИМ юқори корреляцион боғлиқликка эга. Шунингдек, хизматлар ҳажмини ошиши ҳудудларда фаолият юритаётган кичик корхона ва микрофирмалар сонига ижобий таъсир кўрсатиши, амалга оширилган ҳисоб-китобларимиз натижасида аниқланишича, хизматлар ҳажмидаги бир фоиз ўсиш кичик корхона ва микрофирмалар сонини **0,25** фоизга ошишини таъминлайди.

учинчидан:қишлоқ хўжалиги кичик тадбиркорликни ривожлантиришда асос тармоқлардан бири ҳисобланади. Тармоқда яратилган ялпи қўшилган қийматнинг 96,3 фоизи кичик бизнес субъектлари ҳиссасига тўғри келади. Шунингдек, кичик бизнес субъектларининг 69,9 фоизини фермер хўжаликлари ташкил қилади. Соҳанинг салоҳиятини инобатга олган ҳолда қишлоқ хўжалик маҳсулотларини қайта ишлаш, сақлаш ва ташиш билан шуғулланувчи тадбиркорлик субъектларини ривожлантириш ҳудудий тадбиркорликни ривожланишидаги янги сифатда қаралади.

тўртинчидан: мамлакатимиз ҳудудлари кесимида ҳудудий тадбиркорликни ривожланишини баҳолаш натижаларига эътибор қаратадиган бўлсак, кичик бизнес соҳасини ривожланганлик даражасини юқори эмаслиги ва соҳа ривожланишида тармоқлар кесимида нобарқарорлик мавжудлиги аниқланди.

бешинчидан: саноат асосий тармоқларидан бири бўлишига қарамасдан соҳада яратилаётган ялпи қўшилган қиймат ҳажмида кичик бизнес соҳасини улушини паст даража қолаётганлиги аниқланди. Саноат ишлаб чиқаришида кичик бизнес соҳасини ривожлантиришга эътибор қаратилиши, хусусан маҳаллий ресурсларни қайта ишлашга ихтисослашган саноат тармоқларида тадбиркорликни ривожлантириш соҳада кичик бизнес соҳасини ривожланишини таъминлайди.

олтинчидан: кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик фаолиятининг ривожланишига асосий таъсир қилувчи соҳалар қишлоқ хўжалиги ҳамда қурилиш эканлиги аниқланди. Амалга оширилган таҳлил натижаларига кўра, мазкур соҳаларда кичик бизнес соҳасини ривожланиш тенденциясини таъминланиши ЯИМда унинг улушини 2025 йилга келиб, 64,4 фоизга етишини таъминлайди. Бунинг натижасида соҳанинг бандликдаги улуши 80,0 фоиздан ошиши таъминланади.

Хулоса қилиб айтганда, мамлакатимиз ва унинг ҳудудларида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик фаолиятининг бугунги кундаги ҳолати, ундаги ривожланишнинг асосий тенденция ва йўналишлари, ижтимоий – иқтисодий ривожланишга таъсир кўрсатувчи омиллар статистик жиҳатдан кенг илмий тадқиқ этилиши зарур. Уларнинг амалиётда қўлланиши миллий иқтисодий фаолиятни комплекс тизимли статистик таҳлил қилиш, зарурий чора тадбирлар белгилаш ҳамда барқарор

ривожлантириш бўйича дастурлар ишлаб чиқишда илмий манба сифатида хизмат қилади.

Адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 21 сентябрдаги “2019–2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини инновацион ривожлантириш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5544-сонли фармони. //Lex.uz.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. //Халқ сўзи, 2020 й. 25 январь.
3. Шамхалов Ф. Роль предпринимателя в рыночной экономической системе. М.: Маркетинг. 1997. №3. с. 95
4. Макконелл К., Брю С. Экономикс. Принципы, проблемы и политика (1). М.: Республика, 1992, с. 38
5. Абалкин Л.И. Заметки о российском предпринимательстве. М.: Прогресс-Академия, 1994, с.12
6. Абдулқосимов Х.П. Шаклланаётган бозор иқтисодиётида инсон омили ва уни фаоллаштириш йўллари. Иқт. фан. док. дисс. автореф. Тошкент, 2005, 27-б.
7. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитасининг 2010-2020 йиллар бўйича маълумотлари. //stat.uz
8. www.mniapf.ru/analytics/small_business

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA O‘ZBEKISTONDA EKOLOGIK TURIZMNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH STRATEGIYASI

Xolmatova Parvina Asliddin qizi
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tayanch doktoranti
parvinaxolmatova1@gmail.com

Annotatsiya. Ma’lumki mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida turizm shu bilan bir qatorda ekologik turizmning o‘rni beqiyos. Maqolada ushbu turizm turining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish mamlakat iqtisodiyotining rivojlananishidagi ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so’zlar. turizm industriyasi, moderinizatsiya, strategiya, turistik xizmatlar.

СТРАТЕГИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ

Аннотация. Известно, что роль туризма, а также экологического туризма в развитии экономики страны несопоставима. В статье

рассматривается значение совершенствования организационно-экономического механизма данного вида туризма в развитии экономики страны.

Ключевые слова. туристическая отрасль, модернизация, стратегия, туристические услуги.

STRATEGY FOR IMPROVING THE ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC MECHANISM OF ECOLOGICAL TOURISM IN UZBEKISTAN IN THE DIGITAL ECONOMY

Abstract. It is known that the role of tourism as well as ecological tourism in the development of the country's economy is incomparable. The article discusses the importance of improving the organizational and economic mechanism of this type of tourism in the development of the country's economy.

Key words. tourism industry, modernization, strategy, tourist services.

So‘nggi yillarda jahon turizm industriyasining rivojlanishi ekologik turizmning jadal o‘sishi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib bormoqda. BMT va JST ma’lumotlariga ko‘ra, ekologik turizm iqtisodiyotning eng istiqbolli tarmoqlaridan biri sifatida tan olingan. Garchi bu sanoatning yosh, bir vaqtning o‘zida rivojlanayotgan tarmog‘i bo‘lsa-da, daromadi dunyoning ayrim mamlakatlari Yalpi Ichki Mahsulotining asosiy qismini tashkil qiladi. Ular orasida Avstraliya, Yangi Zelandiya, Janubiy Afrika, Keniya, Tanzaniya, Ekvador, Laos, Nepal va boshqalar bor. Yevropaning rivojlangan mamlakatlari va AQShda ekoturistlar o'z mamlakatlari, asosan milliy bog‘larga tez-tez sayohat qilish maqsadida tashrif buyurishadi[44]. Shu bilan birga, ekologik turizmni rivojlantirish dunyoning ko‘plab mamlakatlarida hamda O‘zbekistonda ham turizmni modernizatsiya qilish uchun asos bo‘la oldi.

Bugungi kundagi mashhur ekologik turizmning paydo bo‘lishi turistik xizmatlarga talabning ortib borishiga asosiy sababdir. Boshqa yo‘nalishlarga qaraganda ekoturizm eng mukammal va ekotizimlarga juda ham kam miqdorda salbiy ta’sir ko‘rsatadigan tizimdir.

Mintaqaviy boshqaruv nuqtai nazaridan ekologik turizmning paydo bo‘lishi va rivojlanishi quyidagilarga olib keladi:

a) soliq to‘lovchilar soni va soliq solinadigan bazaning ko‘payishi;

b) ish o‘rinlari sonining ko‘payishi;

v) biznes bilan o‘zaro aloqa qilish uchun qulay vositaning paydo bo‘lishi;

d) mintaqaning investitsion jozibadorligining o‘sishi;

e) mintaqaning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatini oshirish.

Shunday qilib, ekologik turizmning rivojlanishini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmiga ehtiyoj paydo bo‘lib, uni turizmning faoliyati va rivojlanishi shartlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita ta’sir qilish algoritmini

[44] UNWTO. (2020)Xalqaro turizmning diqqatga sazovor joylari. unwto.org dan olindi:http://www.UNWTO.com/internationaltourismhighlight/2018/page/23

belgilovchi tizim elementlari to‘plami sifatida tushunish kerak. Aynan shu sababdan hukumatimizda ham ushbu turizm turiga bo‘lgan e’tibor va uni rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslar ham olg‘a surilmoqda. Xususan, davlatimiz rahbarining 2019-yil 11-iyundagi tegishli qarori bilan qabul qilingan 2019-2028-yillarda O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash bo‘yicha Harakatlar strategiyasi oltinchi bobi yettinchi bandida ekologik turizmni rivojlantirish nazarda tutilgan. Hujjat bugungi kunda ushbu yo‘nalish jadal rivojlanayotganini va rentabellik nuqtai nazaridan juda istiqbolli ekanligini ta’kidlaydi[45]. Bundan tashqari, so‘nggi yillarda tabiiy bog‘lar, ayniqsa, yirik shaharlar yaqinidagi tog‘ va tog‘oldi hududlaridagi dam olish maskanlariga aholi o‘rtasida talab yuqori ko’rsatkichlarni ko‘rsatyabdi. Ushbu hududlardan foydalanish an'anaviy joylarda rekreatsion yuklarni ko'paytiradi hamda fuqarolarning ommaviy dam olishi biologik xilma-xillikka sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu boisdan ham Strategiyada mamlakatimizda ekologik turizm faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini yaratish bo‘yicha izchil chora-tadbirlarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan. Avvalo, sohaning normativ-huquqiy bazasini takomillashtirish, tegishli kadrlar tayyorlashni tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish va respublikaga kirib kelayotgan chet el fuqarolari sonini keskin oshirish, shuningdek, milliy turizm mahsulotini jahon bozorlarida ommalashtirish maqsadida 2019-yil 13-avgustdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining. O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish tadbirlari to’g’risida” gi qarori imzolangan. Hujjat bilan birgalikda mamlakatimizda turizmni, jumladan, ekologik turizmni rivojlantirishga qaratilgan 65 ta tadbirni o‘z ichiga olgan “yo‘l xaritasi” qabul qilindi[46].

Ekologik turizmni rivojlantirishning tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish barqaror amaliyotni ilgari suruvchi, tabiiy resurslarni muhofaza qiluvchi va mahalliy hamjamiyatlarni qo‘llab-quvvatlovchi strategiya va siyosatlarni amalga oshirishni o‘z ichiga olib, Ushbu mexanizmlarni kuchaytirishning bir necha asosiy usullari mavjud:

1. Siyosatni ishlab chiqish: Hukumatlar turizm faoliyatini tartibga soluvchi, tabiatni muhofaza qilish bo‘yicha sa’y-harakatlarni rag‘batlantiradigan va sanoatda barqaror amaliyotni rag‘batlantiradigan siyosatlarni yaratishi va amalga oshirishi mumkin.

2. Davlat-xususiy sheriklik: hukumat organlari, xususiy sektor manfaatdor tomonlari va mahalliy hamjamiyatlarning hamkorligi barqaror turizm tashabbuslarini ilgari surish va iqtisodiy manfaatlarni teng taqsimlashni ta’minlashga yordam beradi.

[45] Sh. Mirziyoev (2019 yil, 11 iyun). O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash bo‘yicha 2019-2028 yillarga mo‘ljallangan strategiya. Prezident farmoni.

[46] Sh. Mirziyoev, (2016 yil, yanvar) O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. Prezident Farmoni.Dp-5611 05.01.2019y.

3. Imkoniyatlarni oshirish: turizm operatorlari, mahalliy hamjamiyatlar va tegishli manfaatdor tomonlarni o‘qitish va resurslar bilan ta’minlash ularning barqaror amaliyotlarni amalga oshirish va turizm faoliyatini mas'uliyat bilan boshqarish qobiliyatini oshirishi mumkin.

4. Sertifikatlash dasturlari: ekologik toza turar joylar, turoperatorlar va diqqatga sazovor joylar uchun sertifikatlash dasturlarini amalga oshirish iste’molchilarga ongli ravishda tanlashda yordam beradi va barqarorlikka ustuvor ahamiyat beradigan korxonalarni qo‘llab-quvvatlaydi.

5.Jamiyatning ishtiroki: qarorlar qabul qilish jarayonlariga mahalliy hamjamiyatlarni jalb qilish, ularning ekoturizmni rejalashtirishdagi ishtirokini ta’minlash va ular bilan iqtisodiy manfaatlarni baham ko‘rish mulkdorlik tuyg‘usini rivojlantirish va barqaror rivojlanishga yordam beradi.

6.Infratuzilmaga sarmoya kiritish: qayta tiklanadigan energiya tizimlari, chiqindilarni boshqarish ob'ektlari va kam ta'sir ko'rsatadigan transport variantlari kabi ekologik toza infratuzilmani rivojlantirish turizm faoliyatining ekologik izini kamaytirishi mumkin.

7. Marketing va reklama: destinatsiyaning noyob tabiiy va madaniy diqqatga sazovor joylarini ta’kidlash, mas’uliyatli sayyohlik amaliyotini targ‘ib qilish va tashrif buyuruvchilarni tabiatni muhofaza qilish bo‘yicha sa’y-harakatlarni o‘rgatish xabardorlikni oshirishga va atrof-muhitga e’tiborli sayohatchilarni jalb qilishga yordam beradi.

8. Monitoring va baholash: Turizm faoliyatining atrof-muhitga ta’sirini kuzatish, barqaror rivojlanish tashabbuslari samaradorligini baholash va doimiy takomillashtirish uchun ma’lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish uchun monitoring mexanizmlarini yaratish.

Mintaqada ekologik turizmni rivojlantirishni boshqarish uzoq muddatli vazifa sifatida qaralishi kerak, uni faqat professional tarzda, uni yon funktsiyaga aylantirmasdan hal qilish mumkin. Tashkiliy iqtisodiy mexanizmining asosiy vazifasi hududiy savdo-ko‘ngilochar majmuasi xo‘jalik yurituvchi subyektlarining faoliyati samaradorligini oshirishda, iqtisodiy munosabatlarni o‘zgartirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishda, mamlakatning barqaror iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi muammolarini muvaffaqiyatli hal etishda tashkiliy birligini ta’minlashdan iborat.

Ekoturizmda tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, birinchi navbatda, atrof-muhitni muhofaza qilishga, ishlab chiqarishni rejalashtirish va atrof-muhitni muhofaza qilishni tashkil etishga yagona yondashuvni ta'minlash, ishlab chiqarishni ko‘kalamzorlashtirish va rekreatsiya resurslariga antropogen ta’sirni kamaytirish, atrof-muhitni muhofaza qilishni rag‘batlantirish orqali mintaqa iqtisodiyotini boshqarishda qo‘llaniladigan iqtisodiy mexanizmga o‘xshash iqtisodiy mexanizmni yaratishga qaratilgan bo‘lishi kerak.

Ushbu strategiya turizmning quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha rivojlanishini ta'minlashi kerak: a) tabiiy komplekslarga ta’sir ko‘rsatilmaganlik; b) rezidentlarning bandligini oshirish mexanizmlari yaratilganligi; v) tabiatni